

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Tar. 26.03 RAQAMLI KENGASH**

---

**RENESSANS TA’LIM UNIVERSITETI**

**KURBANOVA SHAXLO JALOLIDDIN QIZI**

**O‘ZBEKISTON XALQARO ALOQALARINING RIVOJLANISHI VA BU  
JARAYONDA SHAROF RASHIDOVNING ROLI (1950 – 1983 yy.)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on historical sciences**

**Kurbanova Shaxlo Jaloliddin qizi**

О‘zbekiston xalqaro aloqalarining rivojlanishi va bu jarayonda Sharof Rashidovning roli (1950 – 1983 yu.) ..... 3

**Курбанова Шахло Джалалиддин кизи**

Развитие международных отношений Узбекистана и роль Шарофа Рашидова в этом процессе (1950-1983 гг.) ..... 25

**Kurbanova Shakhlo Jaloliddin kizi**

The development of Uzbekistan’s international relations and the role of Sharaf Rashidov in this process (1950-1983) ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Tar. RAQAMLI KENGASH**

---

**RENESSANS TA’LIM UNIVERSITETI**

**KURBANOVA SHAXLO JALOLIDDIN QIZI**

**O‘ZBEKISTON XALQARO ALOQALARINING RIVOJLANISHI VA BU  
JARAYONDA SHAROF RASHIDOVNING ROLI (1950 – 1983 YILLAR)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Tar1786 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Renessans ta’lim universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (rus, o‘zbek, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida [www.\\_\\_\\_\\_\\_.uz](http://www._____.uz) va “ZiyoNet”. Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ergashev Shuhrat Ergashevich**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Mahkamova Nodira Raxmanovna**  
tarix fanlari doktori, professor

**Boboyev Feruz Sayfulloyevich**  
tarix fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 raqamli ilmiy kengashining “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025-yil soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy). Tel.: (+99871) 276-76-51; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu.kengash@edu.uz](mailto:tdpu.kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy). Tel.: (+99871) 276-76-51; faks: (+99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi bilan).

**A.K. Kirgizbayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**Yo.R. Tayronov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.n.

**N.X. Oblomurodov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugun xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan chuqur transformatsiya jarayonlari global siyosat ishtirokchilaridan o‘zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan siyosat olib borishni talab qilmoqda. Zero bugun dunyoning turli hududlarida yuz berayotgan qurolli to‘qnashuvlarning jahon urushiga aylanib ketish va insoniyat sivilizatsiyasini halokatga olib kelish xavfi kuchayib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, XX asr tarixida yuz bergan shunday murakkab jarayonlar tarixini, ikki qutbli dunyo sharoitida insoniyatga xavf solib turgan yadroviy urushning oldini olish, mavjud ziddiyatlarni hal etishda davlat va hukumatlar rahbarlarining rolini jiddiy tahlil qilish, ular tajribasini o‘rganish masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Dunyoning yetakchi universitetlari hamda Karnegi va xalqaro tinchlik fondi, Fransiya Xalqaro munosabatlar instituti, Rossiya Fanlar akademiyasi AQSH va Kanada instituti, Xitoy xalq diplomatiyasi instituti, Yaponiya xalqaro munosabatlar instituti kabi ilmiy-tadqiqot markazlarida XX asr siyosiy liderlari faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi ham mavzu ahamiyatining o‘ta muhimligidan dalaolat beradi. Bu ilmiy tadqiqotlar dunyodagi barcha xalqlar uchun ma‘qul bo‘lgan tinch taraqqiyot yo‘lini beliglab olish va unda siyosiy liderlarning rolini ko‘rsatib berishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro maydonda olib borayot siyosat jahon hamjamiyatining alohida e‘tiborini jalb qilmoqda. “O‘zbekistonning chuqur o‘ylangan, pragmatik va aniq yechimga asoslangan ichki hamda tashqi siyosati o‘zining hayotiyiligi, oddiy odamlarning ehtiyoj va manfaatlariga javob berishi bilan halqaro hamjamiyat e‘tirofiga sazovor bo‘lmoqda”<sup>1</sup>. O‘zbekiston Respublikasi olib borayotgan faol tashqi siyosat chet ellar bilan aloqalar tarixini, jumladan, sovet davri O‘zbekiston rahbarlarining SSSR tashqi siyosatidagi ishtiroki tarixini, xususan, Sharof Rashidovning SSSR tashqi aloqalarini rivojlantirish borasidagi faoliyatini o‘rganishning dolzarbligi va zaruratini belgilab beradi. Shuningdek, mavzuni o‘rganishning dolzarbligi bu davrda O‘zbekiston SSR xalqaro munosabatlar subyekti bo‘lmaganligi, sovet rahbarlari Toshkentni Sharqning siyosiy va madaniy markazlaridan biriga aylantirish orqali mustaqillikka erishgan «uchinchi dunyo» mamlakatlarini sotsialistik oriyentatsiya yo‘liga jalb etishni maqsad qilganligi va bu jarayonda O‘zbekiston rahbarlari, xususan, Sh.Rashidov faoliyatidan foydalanganligi, buning esa, ma‘lum ma‘noda, O‘zbekiston SSR tashqi aloqalarining rivojlanishiga olib kelganligini o‘rganishning ilmiy ahamiyatidan ham kelib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-2854-son, 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-son,

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2022. – B. 368.

2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mavzuni o‘rganishda O‘zbekiston Milliy arxivi fondlari<sup>2</sup>da, “Sharof Rashidov nomidagi xalqaro jamoat fondi” arxivi, Jizzax shahridagi “Shon-sharaf” muzeyi, “Sharof Rashidov uy-muzeyi” va memuarlar ilmiy tadqiqot ishining manbaviy asoslari bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston xalqaro aloqalarining rivojlanishi va bu jarayonda Sharof Rashidovning roli (1950 -1983 yy.) mavzusiga ma‘lum darajada taalluqli bo‘lgan tadqiqotlarni davriy va mazmuniga ko‘ra shartli ravishda bir nechta guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Sovet davrida chop etilgan asarlar.
2. Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar.
3. Xorijiy tadqiqotlar.

Sovet davrida O‘zbekiston SSRning 1950 – 1980-yillarda SSSR tashqi aloqalarida ishtirokining iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy jihatlariga bag‘ishlangan bir qator asarlar yaratildi. Ularni mazmuni va qamrovi jihatidan bir necha guruhga ajratish mumkin. Bir guruh asarlar ittifoqdosh respublikalar, jumladan, O‘zbekiston SSRning xalqaro aloqalari huquqiy asoslariga bag‘ishlangan<sup>3</sup>. Ularda xalqaro aloqalarning alohida yo‘nalishlari xalqaro va sovet huquqi nuqtai nazaridan yoritib berilgan. Albatta, O‘zbekiston SSR boshqa respublikalar qatori sovet konstitutsiyalari va qonunlarida ko‘zda tutilgan huquqlarning barchasidan, xususan, tashqi aloqalar sohasidagi huquqlardan to‘laligicha foydalangan emas. Sovet davridagi maqolalarda bu muammo ko‘tarilmagan, asosan konstitutsiya va boshqa hujjatlarning tahlili va respublikalarning tashqi aloqlardagi ishtirokini bayon qilish bilan cheklangan.

Ilmiy adabiyotlarning katta guruhiga O‘zbekiston SSR tashqi aloqalarining umumiy jihatlarini ochib bergan, tashqi aloqalarni yo‘nalishlar va mamlakatlar

---

<sup>2</sup> O‘zMA, 2454-fond, 1-ro‘yxat, 6-ro‘yxat, 153-yig‘majild; 5654-yig‘majild; 2487-fond; 2037-fond, 07-ro‘yxat, 147-yig‘majild; 260(2)-yig‘majild; 442-yig‘majild; 593-yig‘majild.

<sup>3</sup> Ануфриева Л.П. Сотрудничество в области науки и техники между социалистическими и развивающимися странами: правовые вопросы. – М.: Наука, 1987. – 173 с.; Вихарев С.Р., Ветров И.Д. Расширение прав союзных республик: (историко-правовой очерк на материалах Белорусской ССР). / Вихарев С.Р., Ветров И.Д. – М.: Госюриздат РСФСР. 1963. – 264 с.; Ляхов Е.Г., Пушкин Э.А. Один из аспектов международной правосубъектности союзных республик. // 50 лет Союза ССР и актуальные проблемы развития Советского государства, укрепления социалистической законности и совершенствования деятельности следственного аппарата. Волгоград: Изд-во ВСШ МВД СССР, 1974. – 372 с.; Михайлов А.Н. Узбекская ССР – равноправный субъект международного права. // Советский ежегодник международного права, 1972. М.: Наука, 1974. – 176 с.; Сарсембаев М.А. Международное право в истории Казахстана и Средней Азии. Учебное пособие. 1991 г.– Казахская электронная библиотека, 2014. – 312 с.; Бакаева Ф.Х. Внешнеэкономические связи Узбекской ССР (Правовые вопросы). -Т., 1988. – 132 с.

bo'yicha keng qamrab olgan asarlarni<sup>4</sup> kiritish mumkin. Bu asarlarda O'zbekiston SSRning chet mamlakatlar bilan aloqalari umumiy tarzda, sotsialistik yoki kapitalistik mamlakatlarga ajratilmasdan tahlil qilingan. Ularning asosiy qismi daliliy materiallarga boyligi va berilgan baholarning obyektivligi bilan ajralib turadi. Albatta, bu asarlarda Sharof Rashidovning SSSR xalqaro aloqalaridagi ishtiroki alohida tahlil qilinmagan, ammo O'zbekiston SSRga u rahbarlik qilgan davrda respublikaning xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalari rivojlanganligi aniq dalillar asosida ko'rsatib berilgan. Bu asarlar sovet davrida yozilganligi uchun ko'pchiligida sovetcha baynalminallik ruhi va muammoni yoritishda sinfiy yondoshuv alohida ko'zga tashlanadi. Xususan, sotsialistik mamlakatlar bilan aloqalarda do'stlik va o'zaro hamkorlik asosiy ko'rsatkich sifatida yoritilsa, kapitalistik mamlakatlar bilan aloqalarda sinfiylikka katta e'tibor qaratilib, bu mamlakatlar ishchilarining mehnati ekspluatatsiya sifatida talqin qilingan.

Ushbu guruhga oid bir nechta dissertatsiyalar<sup>5</sup> ham yoqlangan bo'lib, ularda O'zbekiston SSRning xalqaro aloqalari ilmiy tahlil qilingan. Bu dissertatsiyalar orasida ayniqsa O'zbekistonning SSSR tashqi siyosiy faoliyatidagi ishtiroki yoritilgan ilmiy ish<sup>6</sup> muhim bo'lib, unda 1945 – 1970-yillarda O'zbekiston vakillarining BMT maxsus muassasalarida ishtiroki tahlil qilingan.

Boshqa bir guruhga O'zbekiston SSRning sotsialistik mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnik hamkorligiga bag'ishlangan asarlarni kiritish mumkin<sup>7</sup>. Ularda o'zaro aloqalarning rivojlanishi, respublikamizning O'IYOKga

---

<sup>4</sup> Абуталипов Ч.А. Международные связи Узбекистана. – Т., 1964 – 119 с.; Абуталипов Ч.А. Под ленинским знаменем дружбы и мира. – Т.: Государственное издательство Узбекской ССР. 1970. – 365 с.; Абуталипов Ч.А. Торжество ленинских идей пролетарского интернационализма. На материалах республик Средней Азии и Казахстана (1917 – 1972 гг.). – М.: «Наука», 1974. – 260 с.; Абуталипов Ч.А. Узбекистан в интернациональных хозяйственных и культурных связях СССР в 1946 – 70 годы. – Алма-ата, 1973. – 76 с.; Рустамов У.А. Советский Узбекистан на международной арене. – Т.: “Узбекистан”, 1979. – 208 с.; Инамджанова Г. Узбекистан на международной арене. – Т.: «Узбекистан», 1974. – 84 с.; Зияев Х. Ўзбекистоннинг хорижий мамлакатлар билан иқтисодий ва маданий алоқалари. – Т.: «Фан», 1986. – 56 б.; Маматханов Н. Участие советского Узбекистана в борьбе за международное сотрудничество. – Т.: «Фан», 1972. – 38 с.; С миссией дружбы в Советский Узбекистан. – Т.: «Узбекистан», 1988. – 103 б.; Тўхтажўжаева И.Х. Ўзбекистон жамоатчилигининг чет эллар билан алоқалари. – Т.: “Ўзбекистон”, 1978. – 43 б.; Узбекистан в системе международных отношений СССР: сборник. – Т.: “Узбекистан”, 1984. – 101 с.; Шукурова Х. Совет Ўзбекистонининг халқаро алоқалари. – Тошкент, 1964. – 184 б.; Маматханов Н. Участие советского Узбекистана в борьбе за международное сотрудничество. – Т.: «Фан», 1972. – 38 с.; Маннонов Б., Нишоннов М. Ўзбекистон ССРнинг чет мамлакатлар билан иқтисодий ва маданий алоқалари. – Т.: «Фан», 1974. – 54 б.; Хайтов Ш.А. Общественные организации Узбекистана в развитии международных связей страны (70- 80-е годы) – Т., 1991. – 172 с.

<sup>5</sup> Абуталипов Ч.А. Узбекистан в интернациональных, хозяйственных и культурных связях СССР (1946 – 1970 гг.). – Дисс.канд. ист. наук. Алма-Ата, 1973; Бабаходжаева Р.М. Участие Узбекистана в международном культурном сотрудничестве СССР (конец 70 – начало 80.х годов). – Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1991.

<sup>6</sup> Икрамова Д.И. Советский Узбекистан во внешнеполитической деятельности СССР (На примере участие республики в работе ООН и ее специализированных учреждений. 1945 – 1970 гг.). – Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Ташкент, 1975.

<sup>7</sup> Абдуллаев Ш.М. Узбекистан в интернациональном содружестве СССР со странами-членами СЭВ. – Т.: Изд-во «Фан» Узбекской ССР, 1984. – 202 с.; Каримов К. Узбекистан в социалистическом содружестве. – Т.: «Узбекистан», 1974. – 236 с.; Рахманова Д. Производственные связи рабочего класса Узбекистана со странами социалистического содружества. – Т.: «Фан», 1980. – 186 с.; Нуриддинов Э.З. Вклад Узбекской ССР в экономическое, научно-техническое и культурное сотрудничество СССР с Венгерской Народной Республикой (1960-1980 гг.). – Т., 1985. – 180 с.; Нуриддинов Э.З. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы. Ташкент: Чулпон, 2002. – 216 с.; Нишанов Р.

a'zo mamlakatlar bilan aloqalari, O'zbekistonning xalqaro sotsialistik hamkorlikdagi ishtirokining metodologik masalalari, O'zbekistonning Yevropadagi sotsialistik mamlakatlar bilan iqtisodiy, ilmiy va madaniy hamkorligining boshqa dolzarb muammolari, xususan, respublikadagi zavod, fabrika va boshqa ishlab chiqarish korxonalarining sotsialistik mamlakatlar tovar ayrboshlashi sohasidagi aloqalari, ishchilarning o'zaro tajriba almashinuvi va boshqa masalalar aniq materiallar asosida ochib berilgan. O'zbekistonning xalqaro hamkorlik arenasiga chiqishi respublikaning keyingi rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar ochganligi ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, Markaziy Osiyo respublikalarining rivojlangan sotsializm bosqichida sotsialistik baynalminallik va integratsion jarayonlarlariga bag'ishlangan, mintaqa respublikalari o'rtasida iqtisodiy integratsion jarayonlarning kuchayishi va unda O'zbekiston SSR rolining ortib borishi tahlil qilingan asarlarda ham tashqi aloqalarga alohida e'tibor qaratilgan. Yoshlarning baynaminal aloqalari rivojlanishiga bag'ishlangan asarlarda O'zbekiston yoshlarining aloqalari va ularning geografiyasi kengayib borayotganligi aniq faktlar bilan asoslab berilgan. Ammo bu asarlarning ham aksariyatida tashviqot usuli kuchli bo'lib, "sotsialistik baynalminallik" va "sotsialistik mamlakatlarning ilg'or tajribasiga" katta urg'u berilgan, O'zbekiston SSR tashqi aloqalari va ularning respublika rivojlanishi uchun ahamiyati bo'rttirib ko'rsatilgan.

Bu asarlar va ilmiy ishlarda O'zbekiston SSR liderlari, xususan, Sh.Rashidovning faoliyati alohida dissertatsiya ishi sifatida tadqiq etilmagan. Zotan, Kommunistik mafkura yakka hukmronlik qilgan sovet davrida respublikalar lideralarining faoliyatini ilmiy o'rganish odat bo'lmagan.

O'zbekistonning Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan hamkorligiga bag'ishlangan bir qator asarlar, monografiyalar<sup>8</sup> nashr qilingan. Ularda, xususan, SSSRning Arab Sharqi va Afrika mamlakatlariga ko'rsatgan yordamiga O'zbekiston qo'shgan ulkan hissa va uning bu mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojidadagi roli, respublikaning ushbu mamlakatlarda sanoat va qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlashga qo'shgan hissasi alohida ta'kidlangan. Ayniqsa ilm-fan va ta'lim sohasidagi hamkorlik, O'zbekistonning Osiyo va Afrika

---

Интернационализм – знамя наших побед. – Т.: «Узбекистан», 1970. – 62 с.; Ле Винь Куок, С.Н. Бабаходжаев. Участие Узбекской ССР в советско-вьетнамском сотрудничестве / Советский Узбекистан и зарубежный Восток. – Ташкент, Издательство «Фан» Узбекской ССР. 1984. – 328 с.; Каримов К. Узбекистан в социалистическом содружестве. – Т.: «Узбекистан», 1974. – 236 с.; Исҳоқов Ф.Б. Бир-бирини англаш ва ҳамкорлик сирлари. – Т.: «Ўзбекистон», 1976. – 52 б.; Нуриддинов Э.З. Вклад Узбекской ССР в экономическое, научно-техническое и культурное сотрудничество СССР с Венгерской Народной Республикой (1960-1980 гг.). – Т., 1985. – 180 с.; Чеботарева В.Г. Социалистический интернационализм и интеграционные процессы в республиках Средней Азии и Казахстана на этапе развитого социализма. – Т.: «Фан», 1979. – 236 с.

<sup>8</sup> Исаходжаев А.А. Узбекистан – страны Арабского Востока Африки. – Т.: «Узбекистан», 1980. – 146 с.; Шапсанов М., Сахабаев А. СССР-Индия: дружба и сотрудничество // Коммунист Узбекистана. 1987. №2. – 26 – 35 с.; Вахабова В.А., Кариева Н.С. Научная конференция «Взаимоотношения Средней Азии со странами зарубежного Востока» // Общественные науки в Узбекистане. 1989. №3. – 38 – 39 с.; Каримов Б.Х. Создание Академии наук в Демократической Республике Афганистан // Общественные науки в Узбекистане. 1984. №2. – 32 – 34 с.; Хашимов И. Развитие советско-индийского сотрудничества // Общественные науки в Узбекистане. 1987. №8 – 31 – 36 с.

mamlakatlari uchun zamonaviy kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari, respublikamiz olimlarining bu mamlakatlar iqtisodini rivojlantirishga, ilmiy kadrlar tayyorlashga qoʻshgan hissalarini bu asarlarda batafsil ochib berilgan. Bu mavzuga bagʻishlangan bir qator dissertatsiyalar<sup>9</sup> ham himoya qilingan.

Oʻzbekiston SSRning kapitalistik mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalariga bagʻishlangan asarlar<sup>10</sup> juda kam. Zero, Oʻzbekiston SSSR tarkibida boʻlgan davrda turli xil obyektiv va subyektiv sabablar, avvalo tashqi aloqalarning markaz tomonidan monopoliya qilib olingani ijtimoiy fanlarga, xususan, Oʻzbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati tarixshunosligiga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Bu fikrni oʻsha davrda yaratilgan bir qator asarlarning mazmuni ham tasdiqlaydi, zotan, bu asarlarda kapitalistik mamlakatlar bilan aloqalar deyarli tilga olinmaydi.

Masalan, 1959-yili SSSRda yetti yillik (1959 – 1965) reja qabul qilinishi munosabati bilan eʼlon qilingan kitobda<sup>11</sup> Oʻzbekistonning tashqi aloqalari haqida umuman fikr yuritilmagan. Oʻzbekiston tarixining eng qadimgi zamondan 1960-yillargacha boʻlgan davrini oʻz ichiga olgan va 1967 – 1968-yillari nashr qilingan toʻrt tomlik kitobining 4 jildida<sup>12</sup> asosan Oʻzbekiston erishgan yutuqlar toʻgʻrisida gapiriladi, iqtisodiy, masalan, Gʻarb davlatlari bilan aloqalar toʻgʻrisida umumiy gaplar bilan cheklangan va aniq maʼlumotlar deyarli keltirilmagan.

1974-yili Oʻzbekiston SSRning 50 yilligi munosabati bilan nashr etilgan kichik kitobning<sup>13</sup> deyarli yarmi Oʻzbekistonning iqtisodiy aloqalari, jumladan, Gʻarb davlatlari bilan aloqalariga bagʻishlangan. Ammo material sovet davridagi tashviqot ruhi bilan sugʻorilgan boʻlib, real holatni ochib bermagan.

Bu davrda nashr qilingan boshqa bir qator asarlarda<sup>14</sup> ham Oʻzbekistonning xorijiy mamlakatlar, ayniqsa Gʻarb davlatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari toʻgʻrisida deyarli aytilmagan.

---

<sup>9</sup> Киргизбоев А.К. Научно-техническое и культурное сотрудничество Узбекистана со странами Азии в 80-и годы. – Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Т., 1991.

<sup>10</sup> Сулайманов К. Участие Узбекской ССР в торгово-экономических, научно-технических и культурных связях СССР с промышленно развитыми капиталистическими странами (вторая пол. 60-х – 70-е годы) – Ташкент, 1985. – 326 б.; Иноятов И., Киреева А. Мировой рынок хлопка и торгово-экономические связи хлопкового комплекса СССР. –Т., 1989.- 236 с.

<sup>11</sup> Узбекистан за 7 лет (1959—1965 гг.): Краткий статистический сборник. – Т.: «Объединенное Издат. ЦК КП Узбекистана», 1966; Алескеров М.Н. Равноправное сотрудничество: сотрудничество СССР с молодыми независимыми государствами. – Баку: Азернешр, 1975. – 216 б.; Аскеров Э. Принципы мира, дружбы и сотрудничества СССР с народами Востока (Турция, Иран, Афганистан). – М.: Знание, 1969. – 22 б.; Гаспарян С.К. Научно-техническое сотрудничество между СССР и развивающимся странами Азии. – Рига: Об-во «Знание» Латвийской ССР, 1977. – 27 с.; Гетманец М.З. Советский Союз и страны Азии и Африки: очерк экономического и технического сотрудничества. – М.: «Международные отношения», 1977. – 196 с.; Горбатов О.М., Черкасский Л.Я. Сотрудничество СССР со странами Арабского Востока и Африки. – М.: Наука, 1973. – 342 с.; Дрейер О.К. Образование и наука в развивающихся странах. – М.: Знание, 1974. – 78 б.; Исаходжаев А.А. Узбекистан – страны Арабского Востока Африки (некоторые аспекты сотрудничества 1968 – 1978 гг.) – Т.: «Узбекистан», 1980. – 146 с.

<sup>12</sup> История Узбекской ССР. Том четвертый. – Ташкент: «Фан», 1968. – 586 с.

<sup>13</sup> Инамджанова Г. Узбекистан на международной арене. – Т.: «Узбекистан», 1974. – 84 с.

<sup>14</sup> Республики Средней Азии в период развитого социализма/Ред. кол.: А. Н. Михайлов и др. М.: Мысль, 1980. – 287 с.; Равная среди равных/Сост. Б. В. Замор. Ташкент: Узбекистан, 1982. – 214 с.; Узбекистан в системе международных отношений СССР (Сборник научных трудов). Ташкент, 1984. – 327 с.

Faqat ayrim asarlarda<sup>15</sup> SSSRning rivojlangan kapitalistik mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy aloqalari tahlil qilinib, Yevropa va Amerikadagi rivojlangan kapitalistik davlatlar hamda Yaponiya bilan hamkorlik aloqalarida O‘zbekiston SSRning o‘rnini ham ko‘rsatib berishga harakat qilingan.

Baynaminallik masalasiga bag‘ishlangan kitobda<sup>16</sup> respublikamiz ilmiy va madaniy aloqalarining yildan-yilga kuchayishi, O‘zbekistonning sovet respublikalari va sotsialistik mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarining respublikamiz rivojiga ijobiy ta’siri va unda baynaminallikning roli ochib berilgan. Albatta, bu asarlar bevosita SSSR tashqi aloqalarida Sharof Rashidovning ishtiroki mavzusiga bag‘ishlanmagan.

Bu asarlar va ilmiy ishlarda O‘zbekiston SSR liderlari, xususan, Sh.Rashidovning faoliyati albatta maxsus ilmiy tadqiq etilmagan. Zotan, Kommunistik mafkura yakka hukmronlik qilgan, O‘zbekiston mustaqil bo‘lmagan sharoitda buning iloji ham yo‘q edi.

Mustaqillik yillari yaratilgan asarlarda Sharof Rashidov faoliyatining turli jihatlarini tadqiq etilgan bo‘lib, uning SSSR tashqi siyosati sohasidagi faoliyati ham umumiy kontekstda berilgan. Xususan, “Kremlda o‘tgan kunlarim (Esdaliklar)”<sup>17</sup>, “Sharof Rashidov. Portretiga chizgilar”<sup>18</sup> asarlari mualliflari Sh.Rashidov bilan bevosita birga ishlashgan bo‘lib, o‘z xotiralari va oddiy tadqiqotchi uchun juda noyob bo‘lgan materiallar asosida Sharof Rashidov faoliyatining turli jihatlarini, jumladan, diplomatik faoliyatini ham tahlil qilishgan. “Akam haqida”<sup>19</sup>, “Inson portreti davr va davr portreti inson ko‘zgasida”<sup>20</sup> asarlari mualliflari mutaxassisliklari bo‘yicha tarixchilar bo‘lmasa-da, Sharof Rashidovning yaqinlari, oila a‘zolari bo‘lganligi uchun asosan uning ichki olamini ochib berishga harakat qilishgan va ayna paytda Sh.Rashidovning diplomatik faoliyati, xususan, chet el delegatsiyalari bilan uchrashuvlari, sovet delegatsiya rahbari sifatida chet mamlakatlarga qilgan safarlari haqida ham muhim ma’lumotlar berishgan. “Siyosiy byuroda korrupsiya: qizil o‘zbek ishi”<sup>21</sup> asari muallifi rossiyalik publitsist bo‘lib, Moskva arxivlarida saqlanayotgan materiallar asosida Sharof Rashidov faoliyatining bir qator jihatlarini, xususan, paxta ishi bilan bog‘liq jarayonlarni yoritgan. Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan nashr qilingan asarlar orasida “O‘chmas sharaf”<sup>22</sup> nomli tadqiqot cho‘l va qo‘riq yerlarni o‘zlashtirishga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, unda Sh.Rashidovning tashqi faoliyati,

---

<sup>15</sup> Сулайманов К. Участие Узбекской ССР в торгово-экономических, научно-технических и культурных связях СССР с промышленно развитыми капиталистическими странами (вторая пол. 60-х – 70-е годы) – Ташкент, 1985. – 247 с.

<sup>16</sup> Нишанов Р. Интернационализм – знамя наших побед. – Т.: «Узбекистан», 1970- 74 с.; Шукурова Ш. Интернационализм в действии. –Т., 1984 – 32 с.; Саидкасымов С. Социальная, интернационалистическая активность молодежи. –Т., 1982. – 94 с.; Тураев Х. Интернациональные связи советской молодежи в период зрелого социализма: (На материалах респ. Сред. Азии). – Т.: Фан, 1985. – 191 с.

<sup>17</sup> Мухитдинов Н.А. Кремлда ўтган кунларим [Эсдаликлар]. Биринчи китоб. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1995. 316 с.

<sup>18</sup> Ризаев С. Шараф Рашидов. Штрихи к портрету. – Т.: “Ёзувчи” – “Нур”, 1992. -246 с.

<sup>19</sup> Рашидов А. Акам хақида. – Т., 1992 – 42 с.

<sup>20</sup> Рашидова Ш.Г., Камиллов Д.А. Портрет человека в эпохе и эпохи в человеке. – Т.: “Тасвир”, 2017 – 236 с.

<sup>21</sup> Раззаков Ф.И. Коррупция в политбюро: Дело красного узбека. – М.: Эксмо, 2009 – 328 с.

<sup>22</sup> Алимардонов Т. Ўчмас шараф. – Т.: “Доно нашриёти”, 2017 – 312 б.

xususan, O‘zbekistonga tashrif buyurgan chet el delegatsiyalarining Mirzacho‘lda bo‘lishi, o‘zbekistonlik paxtachilik mutaxassislarining rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘rsatgan yordamlari haqida ham muhim ma‘lumotlar berilgan. Yubiley munosabati bilan nashr etilgan yana bitta asarda<sup>23</sup> esa Sharof Rashidovning shaxs, ijodkor va siyosatchi sifatida shakllanishi tarixiy jarayonlar kontekstida tahlil qilingan. Albatta, Sh.Rashidov faoliyatining muhim jabhalaridan biri – sovet diplomatiyasidagi ishtiroki ham qisman yoritilgan. “Sharof Rashidov: G‘olib”<sup>24</sup> nomli asar Sh.Rashidov hayoti va faoliyatining umumiy jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lim, diplomatik faoliyatiga ham qisqa o‘rin berilgan.

Mustaqillik yillarida nashr qilingan bu asarlarda mualliflar sovet davrining mafkuraviy postulatlaridan voz kechib, Sh.Rashidov faoliyatiga mustaqillik davri ehtiyojlaridan kelib chiqib baho bergan. Bu asarlar yangi muomalaga kiritilgan arxiv materiallari va davr voqealari ishtirokchilarining xotira va esdaliklariga boyligi bilan ham diqqatga sazovar.

Mustaqillik yillarida himoya qilingan dissertatsiyalar orasida mavzuga qisman oid bo‘lgan quyidagi ilmiy ishlarni keltirish mumkin: “O‘zbekistonning xalqaro ilmiy aloqalari (1960 – 1980-yillar)”<sup>25</sup>, “O‘zbekistonning xalqaro aloqalari 60 – 80-yillar tarixiy adabiyotlarida”<sup>26</sup>, “XX asrning 80-yillarida O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ma‘naviy hayot”<sup>27</sup>, “Mustaqil O‘zbekistonning xalqaro madaniy aloqalari va ularning respublika barqarorligini mustahkamlashdagi ahamiyati (xorijiy Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqalar misolida)”<sup>28</sup>. Ularning aksariyati tadqiq etilayotgan mavzuga bevosita taalluqli bo‘lmasada, davrni, mavzuga oid umumiy jarayonlarni ochib berishda muhim hisoblanadi. Shunday asarlardan yana biri taniqli olim G.A.Hidoyatovning «Diplomatiya XX veka» asari bo‘lib, unda ham Sharof Rashidov faoliyati haqida so‘z yuritilmasada, u ishtirokchisi bo‘lgan davrning muhim xalqaro voqealari tahlil qilingan<sup>29</sup>.

Shuningdek, O‘zbekiston SSR ilm-fanini rivojlantirish, chet mamlakatlar ilmiy muassasalari bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishda Sh.Rashidovning rolini yanada aniq tasvirlash uchun akademik A.Asqarovning dissertantga bergan intervyusi<sup>30</sup> katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Intervyuda keltirilgan faktlar asosida dissertatsiyaning qismlari boyitildi.

---

<sup>23</sup> Эргашев Ш. Эрк истар кўнгил. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017.- 200 б.

<sup>24</sup> Кучиев И. Шараф Рашидов: Победитель. – Минск, «Альфа-книга», 2020- 496 с.

<sup>25</sup> Мирзакулов А.Я. Международные научные связи Узбекистана (1960-1980-е годы). Автореферат диссертации на соискание кандидата исторических наук. Андижан, 1993. – 28 с.

<sup>26</sup> Салиев У.А. Международные связи Узбекистана в исторической литературе 50-80-х годов. Автореферат диссертации на соискании кандидата исторических наук. Андижан, 1994. - 26 с.

<sup>27</sup> Юнусова Х.Э. Социально-экономические процессы и духовная жизнь в Узбекистане в 80-х годах XX века. Автореферат иссертации на соискании док. ист. наук. – Ташкент, 2009 – 48 с.

<sup>28</sup> Пўлатова С.А. Мустақил Ўзбекистоннинг халқаро маданий алоқалари ва уларнинг республика барқарорлигини мустаҳкамлашдаги аҳамияти (хорижий Шарқ мамлакатлари билан маданий алоқалар мисолида). Тарих фанлари илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 1994. – 28 с.

<sup>29</sup> Хидояттов Г.А. Дипломатия XX века. Том 1. - Москва: СМИ-АЗИЯ, 2010; Хидояттов Г.А. Дипломатия XX века. Том 2. <https://goga-hidoyatov.narod.ru/2part4.html>

<sup>30</sup> Академик А.Асқаров диссертантга 23 октябрь 2024 йилда берган интервью.

Xorijiy davlatlarda nashr qilingan bir qator asar va maqolalarda ham Sh.Rashidov faoliyatining ayrim jihatlari tahlil qilingan. Masalan, Kuba rahbari Fidel Kastro o'zining xotiralarida<sup>31</sup> bir necha sahifani 1962-yilgi Karib inqirozi voqealariga va ularda faol ishtirok etgan Sharof Rashidovga bag'ishlagan. U bilan O'zbekiston rahbari o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilgan bo'lib, Sh.Rashidovning diplomatik faoliyatiga ham yuqori baho bergan.

“Sharof Rashidov va milliy liderlik dilemmasi”<sup>32</sup> nomli maqolada muallif haqli ravishda Sharof Rashidovni nafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharq musulmon dunyosining liderlaridan biri sifatida talqin qiladi. “Ajoyiblar” lideri sharaflanadi” “Tayrles”<sup>33</sup> nomli maqolada ham Sh.Rashidov shaxsiga chet ellik tadqiqotchi tomonidan berilgan baho bahsli bo'lishiga qaramasdan, ayrim obyektiv jihatlari bilan e'tiborga loyiq. “Washington post” gazetasida e'lon qilingan “Kuba Gavanada qizillar to'qnashuvida g'olib bo'ldi, shekilli”<sup>34</sup> nomli maqola ham Karib inqirozining natijalariga bag'ishlangan bo'lib, unda Sh.Rashidov ishtirokiga ham to'xtalgan. Ta'kidlash joizki, ushbu maqolalarning aksariyatida yuqorida aytilganidek, Sh.Rashidov tashqi siyosiy faoliyatining ayrim jihatlari haqida ma'lumot beriladi, ammo tahlil qilinmaydi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Renessans ta'lim universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidan o'rin olgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** O'zbekiston tashqi aloqalarining rivojlanishi va bu jarayonda Sharof Rashidovning rolini mavjud ilmiy asarlar, dissertatsiyalar, arxiv materiallari, muzeylarda saqlanayotgan materiallar asosida yaxlit ilmiy ish sifatida yaratish maqsad qilib olingan.

**Tadqiqotning vazifalari.** Ilmiy ishda quyidagilar vazifa qilib belgilandi:

SSSR tashqi aloqalarining asosiy yo'nalishlari va unda O'zbekiston SSR ishtirokining huquqiy asoslarini o'rganish;

Sh.Rashidovning diplomatik faoliyatini va u rahbarlik qilgan davrda respublikaning chet davlatlar bilan iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalari tarixini yoritish;

Toshkentni Sharqning siyosiy, madaniy va ilmiy markazlaridan biriga aylantirishda Sh.Rashidovning rolini ko'rsatib berish;

O'rganilgan masalalar yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish hamda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektini** SSSR tarkibidan bo'lgan O'zbekiston SSR tashqi aloqalarining rivojlanishi va bu jarayonda Sharof Rashidovning rolini XX asr O'zbekiston tarixining ajralmas qismi sifatida o'rganish tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmetini** XX asrning 50 – 80-yillarida O'zbekiston SSRning chet davlatlar bilan iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalari, ularning

---

<sup>31</sup> Кастро Ф., Рамоне И. Фидель Кастро. Моя жизнь. Биография на два голоса. - М.: Рипол Классик, 2008. - 516 с.

<sup>32</sup> Gregory Gleason, Sharaf Rashidov and the dilemmas of national leadership, Central Asian Survey Vol. 5, Iss. 3-4, 1986. – 133 – 160 pp.

<sup>33</sup> Osnos, P. (1976, March 2). «Brilliant», «Tairles» Leader Hailed. The Washington Post, A16.

<sup>34</sup> Kurzman, D. (1966a, January 21). Cuba Seems the Gainer in Reds' Clash at Havana. The Washington Post, A9.

dinamikasi, bu aloqalarning Sh.Rashidov rahbarlik yillaridagi holati, chet el rahbarlarining O‘zbekistonga tashrifi, O‘zbekistonda uyushtirilgan xalqaro tadbirlar, Sh.Rashidovning tashqi siyosat sohasidagi faoliyati tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot davomida tizimlashtirish, manbalarni tarixiy, qiyosiy va mazmuniy tahlil hamda muammoviy-davriy yondoshuv kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

1950-yillarning o‘rtalarida G‘arb davlatlari va sobiq SSSR o‘rtasida “uchinchi dunyo” mamlakatlarini o‘zining siyosiy ta’sir doirasiga olish uchun boshlangan kurashda mohir diplomat va siyosiy yetakchi Sh.Rashidovning tashqi siyosat sohasidagi faoliyati asosan Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan ijtimoiy-gumanitar sohalarda hamkorlik o‘rnatishga hamda ularni umuminsoniy g‘oyalarga sodiqlik ruhida rivojlanish yo‘liga jalb qilishga yo‘naltirilganligi ochib berilgan;

Sh.Rashidovning 1962-yilgi “Karib inqirozi” davrida AQSh bilan sobiq SSSR o‘rtasida vujudga kelgan ziddiyatni yumshatishda, global yadroviy urush xavfini bartaraf etishda, Kuba Respublikasi mustaqilligini saqlab qolish va uning xavfsizligini kafolatlashda Kubaga sovet raketalarini paxta terish va boshqa qishloq xo‘jalik mashinalari nomi ostida joylashtirishdagi mahorati hamda mustaqillikka erishgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari ozodligini mustahkamlashdagi sa‘yi-harakatlari dalillangan;

O‘zbekiston Markaziy Osiyo respublikalari orasida yuqori madaniy va ilmiy-texnik salohiyatga ega bo‘lganligi sababli Toshkent shahrini Sharq mamlakatlari uchun madaniy muloqot maydoniga aylantirishda, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun kadrlar tayyorlashga yo‘naltirishda hamda 1970 – 1980-yillari oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan yoshlar ta’lim olishi uchun zarur sharoitlarni yaratishda sobiq SSSR rahbarlari Sh.Rashidovning diplomatik salohiyatidan mavjud tuzum manfaatlari yo‘lida foydalanganligi ko‘rsatib berilgan;

Sovet davrida O‘zbekiston sanoatining asosan paxta etishtirish va uni qayta ishlash bilan bog‘liq sohalari rivojlanganligi, chet davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar markazdan boshqarilganligi va cheklanganligi, respublika 1500 dan ortiq korxonalari o‘z mahsulotlarini asosan Osiyo va Afrika mamlakatlariga eksport qilganligi, eksportning asosiy qismini qishloq xo‘jaligi mashinalari va kimyo sanoati mahsulotlari tashkil qilganligi hamda shu mamlakatlarga Sh.Rashidov boshchiligida tashrif buyurgan sovet delegatsiyasining maqsadlari sobiq SSSRning tashqi siyosat strategiyasi va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqanligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Milliy arxivi, Jizzax shahridagi “Shon-sharaf” muzeyi, “Sharof Rashidov uy-muzeyi” va “Sharof Rashidov nomidagi xalqaro jamoat fondi”da saqlanayotgan hujjatlar o‘rganilib, yo‘nalishlar bo‘yicha tavsiflangan. O‘zbekiston kutubxonalarida saqlanayotgan mavzuga oid ko‘plab adabiyotlar va davriy nashr materiallari aniqlanib, tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusiga oid respublika va xorijiy ilmiy tadqiqotlar o‘rganilgan va bir qator yangi ma’lumotlar va hujjatlar ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan.

Tarixchi, siyosatshunos olimlarning mazkur mavzuga oid sovet davrida, mustaqillik yillarida hamda xorijda yaratilgan asarlari tahlili asosida o‘rta-maxsus va oliy ta‘lim muassasalarida O‘zbekiston tarixini o‘qitish va o‘rganishda foydalanish mumkin bo‘lgan ma‘lumotlar ko‘rsatib berilgan.

XX asrning 50 – 80-yillari ijtimoiy-siyosiy muhitidagi o‘zgarishlarning sovet tashqi siyosatiga ko‘rsatgan ta‘siri, Sharof Rashidovning bu o‘zgarishlarga mos siyosat olib borganligi va erishgan natijalari tahlil etilib, mazkur davrni o‘rganish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** tadqiqotda muammoning mazmunini ochib berishda O‘zbekiston Milliy arxivi, Jizzax shahridagi “Shon-sharaf” muzeyi, “Sharof Rashidov uy-muzeyi” va “Sharof Rashidov nomidagi xalqaro jamoat fondi”da saqlanayotgan birlamchi manbalardan foydalanilganligi, tadqiq etilayotgan mavzuga oid adabiyotlar, yaratilgan ilmiy ishlarning tahlil qilinganligi, dissertatsiya natijalari amaliyotga joriy etilayotganligi hamda olingan ilmiy natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati** arxiv jamg‘armalarida O‘zbekistonning XX asr 50 – 80-yillari tashqi aloqalari, ularda Sh.Rashidovning rolini aks ettirgan, ilk marotaba ilmiy muomalaga kiritilgan yangi ma‘lumotlar O‘zbekiston tarixini yoritish, tashqi aloqalar va Sh.Rashidovning shaxsiy faoliyati to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy bilimlarni yanada chuqurlashtirish, ushbu masalaga oid ilmiy xulosalarni amaliyotga joriy etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekistonning sovet davri tarixini o‘rganishda, tarixiy bilimlarni rivojlantirishda, muzeylarning ekspozitsiyalarini yaratish va yangilash, O‘zbekiston SSRning tashqi aloqalari va unda Sh.Rashidovning rolga doir ma‘lumotlarni tayyorlash, shuningdek, oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar tizimidagi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, qo‘shimcha adabiyotlar yaratish borasida davlat dasturlarini bajarishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston xalqaro aloqalarining rivojlanishi va bu jarayonda Sharof Rashidovning roli mavzusini tadqiq etish jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

1950-yillarning o‘rtalarida G‘arb davlatlari va sobiq SSSR o‘rtasida “uchinchi dunyo” mamlakatlarini o‘zining siyosiy ta‘sir doirasiga olish uchun boshlangan kurashda mohir diplomat va siyosiy yetakchi Sh.Rashidovning tashqi siyosat sohasidagi faoliyati asosan Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan ijtimoiy-gumanitar sohalarda hamkorlik o‘rnatishga hamda ularni umuminsoniy g‘oyalarga sodiqlik ruhida rivojlanish yo‘liga jalb qilishga yo‘naltirilganligini ochib berishga oid ma‘lumotlar O‘zbekiston Milliy teleradiokampaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali ijodkorlari tomonidan tayyorlanib, “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Sharof Rashidovni xotirlab” ko‘rsatuvi ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokampaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasi tomonidan 28.02.2023 yilda berilgan № 02-30-320-sonli ma‘lumotnoma). Bu o‘z navbatida Sharof Rashidovning global miqyosda fikrlaydigan yetakchi bo‘lganligi, 1962-yilgi Karib inqirozi davrida AQSh bilan SSSR o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishda, insoniyatni yadro

urushi xavfidan asrab qolshda uning ham katta hissasi borligi haqidagi ma'lumotlarni ilmiy tadqiqotchilar va keng ommaga yetkazishda xizmat qildi.

Sh.Rashidovning 1962-yilgi "Karib inqirozi" davrida AQSh bilan sobiq SSSR o'rtasida vujudga kelgan ziddiyatni yumshatishda, global yadroviy urush xavfini bartaraf etishda, Kuba Respublikasi mustaqilligini saqlab qolish va uning xavfsizligini kafolatlashda Kubaga sovet raketalarini paxta terish va boshqa qishloq xo'jalik mashinalari nomi ostida joylashtirishdagi mahorati hamda mustaqillikka erishgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari ozodligini mustahkamlashdagi sa'yi-harakatlari dalillashga oid takliflar Sharof Rashidov nomidagi xalqaro jamoat fondi materiallarini boyitishda keng foydalanildi (Sharof Rashidov nomidagi xalqaro jamoat fondi Boshqaruv kengashi tomonidan 02.05.2023 yilda berilgan № 50-sonli ma'lumotnoma) hamda 1968-yil sentyabrda Osiyo, Afrika, Yevropa, Amerika va Avstraliyaning 46 mamlakatidan yozuvchilar Toshkentda yig'ilib, "Adabiyot va zamonaviy dunyo" mavzusida o'tkazilgan simpozium ham Sh.Rashidovning xalqaro maydondagi rolini xolisona yoritilishiga yordam berdi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo respublikalari orasida yuqori madaniy va ilmiy-texnik salohiyatga ega bo'lganligi sababli Toshkent shahrini Sharq mamlakatlari uchun madaniy muloqot maydoniga aylantirishda, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun kadrlar tayyorlashga yo'naltirishda hamda 1970 – 1980-yillari oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan yoshlar ta'lim olishi uchun zarur sharoitlarni yaratishda sobiq SSSR rahbarlari Sh.Rashidovning diplomatik salohiyatidan mavjud tuzum manfaatlari yo'lida foydalanganligi ko'rsatib berishga hamda Sovet davrida O'zbekiston sanoatining asosan paxta etishtirish va uni qayta ishlash bilan bog'liq sohalari rivojlanganligi, chet davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar markazdan boshqarilganligi va cheklanganligi, respublika 1500 dan ortiq korxonalari o'z mahsulotlarini asosan Osiyo va Afrika mamlakatlariga eksport qilganligi, eksportning asossiy qismini qishloq xo'jaligi mashinalari va kimyo sanoati mahsulotlari tashkil qilganligi hamda shu mamlakatlarga Sh.Rashidov boshchiligida tashrif buyurgan sovet delegatsiyasining maqsadlari sobiq SSSRning tashqi siyosat strategiyasi va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqqanligi dalillanganligiga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasiga a'zo bo'lgan barcha millatlar haqidagi ma'lumotlarning boyishiga xizmat qildi (O'zbekiston Respublikasi millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi tomonidan 25.04.2025-yilda berilgan №14-07-157-sonli ma'lumotnoma). Sharof Rashidov tashabbusi bilan o'tkazilgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari Toshkent xalqaro kinofestivali, Hindiston va Pokiston o'rtasida munosabatlarni normallashtirish haqida imzolangan Toshkent deklaratsiasi hamda Osiyo, Afrika va Yevropa mamlakatidan kelgan yigit-qizlar O'zbekistonning turli oliy o'quv yurtlarida ta'lim olganliklari hamda Sharof Rashidov tashabbusi bilan o'tkazilgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari Toshkent xalqaro kinofestivali, Hindiston va Pokiston o'rtasida munosabatlarni normallashtirish haqida imzolangan Toshkent deklaratsiasi hamda Osiyo, Afrika va Yevropa mamlakatidan

kelgan yigit-qizlar O‘zbekistonning turli oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olganliklariga oid qimmatli ma’lumotlar bilan boyitildi.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy–amaliy anjuman va konferensiyalarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprotatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish e’lon qilingan, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalangan manba va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 134 betni tashkil etadi.

### **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlarda keltirilgan.

**“SSSR xalqaro munosabatlar tizimida O‘zbekiston SSR ishtirokining nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobda SSSR xalqaro munosabatlar tizimida ittifoqdosh respublikalar o‘rnining nazariy-huquqiy asoslari, O‘zbekiston SSRning tashqi aloqalar sohasidagi vakolatlarining tarixiy-huquqiy tavsifi hamda Ikkinchi jahon urushidan so‘ng xalqaro munosabatlarda yuz bergan o‘zgarishlar va O‘zbekiston SSRning xalqaro munosabatlardagi ishtiroki kabi masalalar yoritilgan.

1924-yilgi SSSR Konstitutsiyasiga binoan SSSR tarkibiga kirgan sovet respublikalariga suveren davlatlar sifatida qaraladi: “Ittifoqdosh respublikalarning suvereniteti ushbu Konstitutsiyada ko‘rsatilgan va faqat Ittifoq vakolatiga kiruvchi bandlar doirasida cheklangan. Bu doiradan tashqarida har bir ittifoqdosh respublika o‘z davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshiradi; SSR Ittifoqi ittifoqdosh respublikalarning suverenitetini himoya qiladi”<sup>35</sup>. Keyingi sovet konstitutsiyalarida ham respublikalar suvereniteti haqidagi norma saqlanib qoldi, ammo har doim ular deklarativ xarakterga ega bo‘ldi. Sovet konstitutsiyalarida belgilangan huquqlar, ayniqsa tashqi faoliyat sohasidagi kichik huquqlardan ham ittifoqdosh respublikalar 1991-yil SSSR tarqalib ketguncha amalda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmadi. Boshqa ittifoqdosh respublikalar singari O‘zbekiston SSRning ham turli xalqaro konferensiyalarda, BMT, YUNESKO, YUNISEF va boshqa xalqaro

---

<sup>35</sup> Конституция (Основной Закон) Союза Советских Социалистических Республик 1924 г. // СУ РСФСР. 1923. № 81. – С. 782.

tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki ham asosan deklarativ xarakterga ega bo'ldi. 1936-yilgi SSSR Konstitutsiyasining dastlabki tahririda ham tashqi siyosat borasida SSR Ittifoqi huquqlari 1924-yilgi konstitutsiyaga nisbatan deyarli o'zgarmadi. Konstitutsiyaning 14-moddasi tashqi aloqalar, SSSR tuzgan shartnoma va kelishuvlarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish, urush va tinchlik masalalarini va tashqi savdoni davlat monopoliyasi tarzida ittifoq hukumatining vakolati doirasida qoldirdi<sup>36</sup>.

1944-yil 1-fevralda SSSR Oliy Soveti "Ittifoqdosh respublikalarga tashqi aloqalar borasida vakolatlar berish va shu munosabat bilan umumittifoq Tashqi ishlar Xalq Komissarligini ittifoq-respublika Xalq Komissarligi sifatida qayta tashkil qilish to'g'risida" Qonun qabul qildi. Bu qonun va Konstitutsiyaning 1944-yil 1-fevraldagi yangi tahriri barcha ittifoqdosh respublikalarning xalqaro faoliyati uchun konstitutsiyaviy-huquqiy asos bo'ldi<sup>37</sup>. 1944-yili ittifoqdosh respublikalar, jumladan, O'zbekiston SSR konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritilib, tashqi ishlar xalq komissarliklari tuzildi. Biroq, sovet respublikalari, jumladan, O'zbekiston SSR birorta davlat bilan bevosita ikki tomonlama aloqalar o'rnatmadi. 1977-yili qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasida ham ittifoqdosh respublikalarning tashqi aloqalar sohasidagi vakolatlari o'zgarishsiz qoldi<sup>38</sup>. 1978-yili qabul qilingan O'zbekiston SSR Konstitutsiyaning 76-moddasida ham shu matn takrorlanib, "O'zbekiston SSR chet davlatlari bilan aloqaga kirishish, ular bilan shartnomalar imzolash, diplomatik va konsullik aloqalarini o'rnatish, xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish huquqiga ega"<sup>39</sup>, – deyilgan edi.

Ikkinchi jahon urushida SSSRning g'alabasi xalqaro miqyosda uning obro'si yanada yuksalishiga olib keldi. Shuningdek, urushdan keyingi yillari mustamlaka mamlakatlarida mustaqillik uchun kurash avj oldi, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining barcha mamlakatlari ham jahon siyosatiga jadal kirib kela boshladi. Sovet rahbariyati "uchinchi dunyo" deb atalgan bu mamlakatlarning sotsializm qurish yo'lini tanlashi uchun harakat qildi. Bu jarayonda Sharq mamlakatlari uchun sovet tuzumining yutuqlarini o'zida aks ettirgan O'zbekiston SSR muhim rol o'ynay boshladi. 1950-yildan O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi lavozimini egallagan Sharof Rashidov shu davrdan boshlab SSSRning tashqi aloqalariga jalb qilindi.

Sovet tashqi siyosatining Sharq yo'nalishida O'zbekistonga katta rol ajratildi. O'zbekiston ozodlikka erishgan Sharq mamlakatlari uchun jozibador timsolga aylanishi lozim edi. Buning uchun asos ham bor edi. Urushdan keyingi yillar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun eng qulay yillar hisoblanadi. Agar urushdan

---

<sup>36</sup> Конституция (Основной закон) Союза Советских Социалистических Республик 1936 г. // Известия ЦИК Союза ССР и ВЦИК от 6 декабря 1936 г. №283.

<sup>37</sup> Закон СССР от 1 февраля 1944 г. «О предоставлении союзным республикам полномочий в области внешних сношений и о преобразовании, в связи с этим Народного Комиссариата иностранных дел из общесоюзного в союзно-республиканский Народный Комиссариат» // Ведомости Верховного Совета СССР. 1944. № 8.

<sup>38</sup> Конституция (Основной Закон) Союза Советских Социалистических Республик (принята ВС СССР 07.10.1977) // Ведомости Верховного Совета СССР. – 1977. – № 41. – С. 617.

<sup>39</sup> Ўзбекистон ССР Конституцияси (Асосий қонуни). – Т., 1978. – С. 27.

oldingi yillarda O‘zbekistonni industrlashti-rishning bosh yo‘nalishi uni Rossiyaning Moskva, Leningrad, G‘arbiy Sibir kabi rivojlangan sanoat hududlari uchun xom ashyo bazasiga aylantirish bo‘lsa, urushdan keyin bu holat keskin o‘zgardi. Urush yillari O‘rta Osiyo va Qozog‘iston SSRga 250 ta korxonani ko‘chirish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda esa, 1941-yil iyul – noyabr oylarida Sharqqa 1523 ta yirik korxonalar, 18000 ishchi, xizmatchi va ularning oilalari ko‘chirilgan. Shundan O‘zbekiston SSRga 151 ta korxonalar ko‘chirib keltirilgan<sup>40</sup>.

Bu davrda O‘zbekiston 1950-yillar oxiriga kelib eksport qilinayotgan tovarlarning umumiy qiymati bo‘yicha O‘zbekiston Sovet Ittifoqida Rossiyadan keyin ikkinchi o‘ringa chiqdi. Jahon bozorida O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan faqat paxta va qorako‘l emas, o‘zbek injenerlari tomonidan yaratilgan va O‘zbekiston korxonalarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari, murakkab mashina va mexanizmlarga ham talab katta edi. Bu mashinalar sifati bo‘yicha Yevropa, Osiyo, Afrika va Janubiy Amerikada ishlab chiqarilgan mashinalardan qolishmas edi.

Yil sayin O‘zbekistonning eksport geografiyasi ham kengayib bordi. 1958-yili respublika o‘z mahsulotlarini dunyoning 32 mamlakatiga eksport qilgan bo‘lsa, 1959-yili – 42 ta, 1960-yili – 49 ta, 1961-yili – 52 ta, 1962-yili – 58 ta mamlakatga, jumladan, 18 ta Yevropa, 23 ta Osiyo, 10 ta Afrika, 7 ta Amerika mamlakatlariga eksport qilindi<sup>41</sup>.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston SSR xalqaro savdo aloqalarining mustaqil subyekti bo‘lmasada, sovet tashqi iqtisodiy siyosati doirasida avvalo sotsialistik, keyin Osiyo va Afrikadagi mustaqillikka erishgan mamlakatlar bilan jadal iqtisodiy aloqalar o‘rnatdi. Ayniqsa “uchinchi dunyo” mamlakatlarida O‘zbekistonning obro‘yi ortib bordi. 1950-yildan O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi bo‘lgan Sharof Rashidov bu jarayonda sezilarli rol o‘ynadi.

**“Sovet davlati tashqi siyosat strategiyasining o‘zgarishi. Xalqaro munosabatlarda Toshkent rolining ortib borishi”** deb nomlagan ikkinchi bobda Stalining o‘limidan so‘ng SSSRda yangi siyosiy rahbariyatning hokimiyatga kelishi va sovet tashqi siyosat strategiyasidagi o‘zgarishlar, “Uchinchi dunyo” mamlakatlarida milliy-ozodlik harakatining kuchayishi va xalqaro munosabatlarda Toshkent mavqeining oshishi masalalari tahlil qilindi.

1953-yili Stalin vafot etdi. Stalinning o‘limidan so‘ng SSSRning ichki va tashqi siyosatida ma‘lum o‘zgarishlar yuz berdi. Bunda KPSSning XX syezdi va unda Stalin shaxsiga sig‘inishning qoralanishi, qatag‘on qilingan kishilarning oqlanishi katta rol o‘ynadi. Jamiyatda demokratik o‘garishlarni amalga oshirish uchun harakat boshlandi<sup>42</sup>.

1956-yili Sh.Rashidov SSSR Ministrlar Soveti Raisining birinchi o‘rinbosari A.I. Mikoyan boshchiligidagi SSSR Oliy Soveti delegatsiyasi tarkibida 22 martda

---

<sup>40</sup> Абдурахманова М. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон ССРга саноат корхоналарининг кўчирилиши // O‘zbekiston tarixi, 2/2021. Б. 20 – 22.

<sup>41</sup> Абуталипов Ч.А. Международные связи Узбекистана. – Т.: Государственное издательство Узбекской ССР, 1964. – С. 40.

<sup>42</sup> Адиебеков Г.М. Три крутых поворота (О взаимосвязи внешней и внутренней политики КПСС) // Вопросы истории КПСС, 1990, № 3. – С. 38.

Pokiston, 26 – 30 mart kunlari Hindiston, 30 mart – 2 aprel kunlari Birma, 2 – 6 aprel kunlari Vyetnam, 6 – 8 aprel kunlari Xitoy, 8 – 9 aprel kunlari Mo'g'ulistonga tashrif buyurdi. Moskvaga qaytgach, A.I. Mikoyan Sh.Rashidovning diplomatik qobiliyatiga yuqori baho berdi<sup>43</sup>.

1957-yili SSSR Oliy Soveti Prezidiumi Raisi K.YE. Voroshilov boshchiligidagi delegatsiya tarkibida Sh.Rashidov Indoneziya, Birma, Xitoy, Vyetnam, Hindiston, Eron, Iroq va Misrga tashrif buyurdi.

Ma'lumki, 1959-yili Kubada hokimiyatga kelgan Fidel Kastro hukumati mamlakatdagi islohotlarning sotsialistik xarakteri to'g'risida e'lon qildi. AQSH hukumati bir necha bor Kastro hukumatiga qarshi harakatlarni boshlab yubordi.

1962-yil kuzda sovet qo'shinlari tomonidan "Anadir" operatsiyasi amalga oshirildi. Kubaga maxfiy ravishda 40 ta yadro rekatelari va zarur anjomlar keltirildi. 1962-yil 14-yanvarda operatsiya to'liq yakunlandi. Bu operatsiyani amalga oshirishda Sh. Rashidov juda katta rol o'ynadi. U delegatsiya rahbari sifatida Fidel Kastro bilan o'tkazilgan muzokaralarda sovet raketalarining bu mamlakatga joylashtirilishi faqat SSSRning emas, avvalo Kuba manfaatlariga mos ekanligi, AQSH tajovvuzidan orolni va Kuba inqilobini ishonchli himoya qila olishiga uni ishontirdi.

G'arb mamlakatlari Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida o'z pozitsiyasini saqlab qolish uchun hamdan, birinchidan, milliy-ozodlik harakatlarini tiyib turish, ikkinchidan, mintaqaning iqtisodiy resurslaridan foydalanish, uchinchidan, bu hududda SSSR xavsizligiga tahdid qiluvchi strategik aviabazalarni qurish maqsadida harbiy-siyosiy bloklarni shakllantira boshladi. 1955-yili Turkiya, Iroq, Eron, Pokiston, Buyuk Britaniya ishtirokida Bag'dod pakti imzolandi. AQSH bu paktga bevosita a'zo bo'lmasa-da, uni har tomonlama qo'llab-quvvatlab turdi.

1950 – 1960-yillari ikkita buyuk davlatlar o'rtasidagi kuchlar nisbati barqarorlashdi. Bu Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining jahon rivojlanishi umumiy tendensiyalari shakllanishidagi rolini kuchaytirdi, ikki siyosiy tizimlar o'rtasida manevr qilayotgan davlatlar sonining ortishiga olib keldi. Shunday sharoitda SSSR faol tashqi siyosat olib bordi, o'zining Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar bilan aloqalarini kengaytirishga harakat qildi. Bu mamlakatlarga turli, birinchi navbatda, diplomatik delegatsiyalar yuborilib, ular tarkibiga ittifoqdosh respubliklardan ham vakillar kiritildi. Bu jarayonda Sharof Rashidov ham faol ishtirok etdi. U shu davrda sovet delegatsiyasi tarkibida Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Birma kabi mamlakatlarda bo'lib, ular sovet davlatining islom diniga nisbatan siyosatini ma'qullamasligiga guvoh bo'ldi va bu siyosatga ma'lum o'zgartishlar kiritishni taklif qildi.

SSSR qudratining oshib borishi va jahon mustamlaka tizimining barbod bo'lishi "uchinchi dunyo" mamlakatlarida sovet siyosatining faollashuvi uchun qulay imkoniyat yaratdi. 1957 – 1964-yillari 30 dan oshiq rivojlanayotgan mamlakatlar bilan o'zaro tashriflar amalga oshirildi. Hamkorlik to'g'risida 20 dan oshiq kelishuvlar imzolandi. O'zining xalqaro mavqeini mustahkamlashga va

---

<sup>43</sup> Шароф Рашидов номидаги халқаро жамоатчилик фонди архиви, 1956 йил материаллари.

sotsialistik yo‘lni tanlagan mamlakatlar sonini oshirishga intilgan SSSR bir qator yosh davlatlarga jiddiy harbiy-siyosiy va iqtisodiy yordam ko‘rsatdi. Birlashgan Arab Respublikasi iqtisodiy rivojlanishga yo‘naltirilgan xarajatlarining yarmini, Hindiston – 15% ini sovet yordami hisobiga qoplardi. Shu tariqa 1950-yillari sotsialistik Sharq va kapitalistik G‘arb o‘rtasidagi raqobat Yevropadan “uchinchi dunyo” mamlakatlariga ko‘chdi. SSSR Misrga iqtisodiy yordam ko‘rsatdi. 1957-yil 26-dekabr – 1958-yil 1-yanvar kunlari Sharof Rashidov ilk bor sovet delegatsiyasi rahbari sifatida Qohirada bo‘lgan Osiyo va Afrika xalqlari birdamligi konferensiyasida ishtirok etdi. U Misr rahbarlari bilan muvafaqqiyatli muzokaralar o‘tkazdi, K.YE. Voroshilov iltimosiga ko‘ra Jamol Abdul Nosirni O‘zbekistonga taklif qildi. O‘zbek diplomatiyasi o‘z natijasini berdi, keyingi yili J.A. Nosir O‘zbekistonga tashrif buyurdi<sup>44</sup>.

Sh.Rashidov Osiyo va Afrika mamlakatlarini sovet ta’sir doirasiga jalb qilish uchun bu davlatlarga tashriflarini davom ettirdi. 1963-yili u Jazoirga SSSR partiya-hukumat delegatsiyasi rahbari sifatida tashrif buyurdi. Jazoir 1962-yil 19-martda o‘zining to‘liq mustaqilligini e’lon qilgan edi. Sh.Rashidov Jazoir rahbarlari bilan o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha muzokaralar olib bordi.

Keyingi 1964-yili Sh.Rashidov sovet partiya-hukumat delegatsiyasiga rahbar bo‘lib yana Jazoirga mamlakatdagi inqilobning o‘n yilligini nishonlash tantanalariga tashrif buyurdi. Jazoir inqilobining 10 yilligi munosabati bilan bu yerga dunyoning 80 ta mamlakatidan delegatsiyalar tashrif buyurgan edi<sup>45</sup>.

Bu davrda O‘zbekiston SSR erishgan ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, shakllangan olimlar jamoasi fanning ko‘plab sohalarida yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega edi. Arab Sharqi va Afrika mamlakatlariga ham ilmiy-texnik yordam ko‘rsatish, ma’ruzalar o‘qish, alohida ilmiy muammolarni o‘rganish uchun O‘zbekistondan borayotgan olimlar va mutaxassislar soni yildan-yilga ortib bordi.

Faqat 1970 – 1974-yillarda chet ellarda, jumladan, arab va Afrika mamlakatlarida, O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi bo‘yicha 111 nafar olimlar bo‘lib qaytishdi. Shu vaqt ichida respublika Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Arab Sharqi va Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarga 42 nafar olim va mutaxassislar yuborildi. Bu olimlarning barchasi Arab Sharqi va Afrika mamlakatlarida fanning turli sohalarini rivojlantirish va iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sohalardagi muammolarni hal qilishda malakali yordam ko‘rsatdi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, Stalinning o‘limidan so‘ng vujudga kelgan xalqaro munosabatlardagi iliqlik sovet respublikalari, jumladan, O‘zbekistonning ham xalqaro aloqalarda ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratdi. Sh.Rashidovning Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan yaqin munosabatlar o‘rnatish borasidagi sa’y-harkatlari tufayli O‘zbekistonning ham xalqaro nufuzi ortib bordi.

---

<sup>44</sup> Шароф Рашидов номидаги халқаро жамоатчилик фонди архиви, 1957 йил материаллари.

<sup>45</sup> Шароф Рашидов номидаги халқаро жамоатчилик фонди архиви, 1964 йил материаллари.

Toshkent Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarning muhim bo‘g‘iniga aylanib bordi.

**“Xalqaro munosabatlarning yangi tizimi va unda Sharof Rashidovning ishtiroki”** deb nomlangan uchinchi bobda SSSRda siyosiy hokimiyatning almashinuvi va xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar, ularning O‘zbekiston uchun ahamiyati va Sharof Rashidovning tashqi aloqalarda ishtirokining faollashuvi, Sovet rahbariyatining Sharq mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlarga munosabati mavjud ilmiy adabiyotlar va arxiv materiallari asosida tahlil qilingan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi Osiyo va Afrikada bo‘lganligi, asosiy qismi islom diniga e‘tiqod qilganligi sababli sovet rahbarlari bu jarayonga O‘zbekiston SSR rahbarlarini ham jalb qildi. SSSRga tashrif buyurgan chet mamlakatlarning ko‘pchiligi O‘zbekiston SSRda ham bo‘lar edi. Masalan, 1956-yil yanvarda Eron parlamenti delegatsiyasi Toshkentga keldi. Parlament delegatsiyasi a‘zolarini O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Sh. Rashidov qabul qildi. Shu yil iyul oyida Eron shahanshoi Muhammad Rizo Pahlaviy Toshkentga keldi. Uni O‘zbekiston rahbarlari kutib oldi. Shoh Samarqandga ham tashrif buyurdi. Unga O‘zbekiston SSR Oliy Soveti raisi Sh.Rashidov hamrohlik qildi<sup>46</sup>.

1956-yil 26-iyul kuni Pokiston parlamenti delegatsiyasi Toshkentga keldi. Ertasi kuni mehmonlar Sh.Rashidov tomonidan qabul qilindi. Ular O‘zbekiston bilan tanishishni davom ettirdi<sup>47</sup>.

Shu yil 5-sentabrda Indoneziya Respublikasi prezidenti Ahmad Sukarno Toshkentga keldi. 7-sentabr kuni O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi Sh.Rashidov Indoneziya prezidenti Sukarno sharafiga qabul marosimi o‘tkazdi. Marosimda Sh.Rashidov va Sukarno nutq so‘zlab, o‘zaro munosabatlardan qoniqish bildirishdi<sup>48</sup>.

1957-yil 3-avgust kuni O‘zbekistonga tashrif buyurgan Afg‘oniston podshosi Muhammad Zohir shoh sharafiga O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Sharof Rashidov huzurida qabul marosimi uyushtirildi. Marosimda tomonlar yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarining ahamiyati to‘g‘risida, SSSRning Afg‘onistonga yordami haqida gapirishdi<sup>49</sup>. Xususan, 1954-yildan SSSR Afg‘onistonga berib boshlagan imtiyozli kreditlarni davom ettirish, afg‘on yoshlarining ta‘lim olishi borasida yordam ko‘rsatish va ikki tomon uchun ham manfaatli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi<sup>50</sup>.

1961-yil 16-iyul kuni Gana Respublikasi prezidenti va tashqi ishlar ministri Kvame Nkruma O‘zbekistonga tashrif buyurdi<sup>51</sup>. Kvame Nkruma faylasuf, sotsiolog bo‘lib, AQSH va Buyuk Britaniyaning bir qator universitetlarida o‘qigan va dars bergan. U Afrika ozodligi va negrlar tengligi uchun mashhur kurashchi

---

<sup>46</sup> “Кизил Ўзбекистон”, 1956 йил 1 июль.

<sup>47</sup> “Кизил Ўзбекистон”, 1956 йил 26 июль.

<sup>48</sup> “Кизил Ўзбекистон”, 1956 йил 7 сентябрь.

<sup>49</sup> “Кизил Ўзбекистон”, 1957 йил 3 август.

<sup>50</sup> Qarang: Набат М.М. Стратегия экономической помощи СССР Афганистану накануне вывода советских войск // Вестник Санкт-Петербургского университета Востоковедение и африканистики. 2013. Т. 10. Вып. 1. – С. 118–119.

<sup>51</sup> O‘zMA, 2037-fond, 7-ro‘yxat, 153-yig‘majild, 34-varaq.

sifatida bir paytlar Rossiya imperiyasining mustamlakasi bo'lgan O'zbekistonning rivojlanish yutuqlari bilan tanishdi. Unga Sh.Rashidov hamrohlik qildi.

1961-yil sentabrda Hindiston Respublikasi bosh vaziri Javohirlal Neru O'zbekistonga tashrif buyurdi. Mehmon O'zbekiston rahbariyati tomonidan kutib olindi va O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumida qabul marosimi uyushtirildi<sup>52</sup>. J.Neru va Sh.Rashidov o'rtasida bo'lib o'tgan suhbat chog'ida tomonlar o'zaro aloqalarni mustahkamlashga qiziqish bildirishdi.

1964-yil 19-martda Yaman arab Respublikasi prezidenti marshal Abdulla as-Salal Toshkentga keldi. U O'zbekiston SSR rahbariyati tomonidan kutib olindi. As-Salal O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari Sharof Rashidov hamrohligida O'zbekiston bilan tanishdi, "Qizil O'zbekiston" kolxozida bo'ldi. Mehmonga sotsializm yillarida respublika erishgan yutuqlar haqida batafsil ma'lumot berildi<sup>53</sup>.

1964-yil 28-aprelda Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi prezidenti Ahmad Ben Bella boshchiligidagi delegatsiya Toshkentga keldi. Aeroportda mehmonni Sharof Rashidov, O'zbekiston Kompartiyasi, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti va Oliy Sovet Prezidiumi rahbarlari kutib oldi. Shu yerda Sh.Rashidov va Ahmad Ben Bella nutq so'zladi. Ertasi kuni delegatsiya a'zolari Toshkentning diqqatga sazovar joylari va sanoat korxonalarida bo'ldi<sup>54</sup>.

1964-yil 17 – 18-sentabr kunlari Toshkentda Birlashgan Arab Respublikasi bosh vaziri Ali Sabri rasmiy tashrif bilan bo'ldi. Sharof Rashidov bilan bo'lgan suhbatda u ikki tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yishdan manfaatdor ekanligini izhor qildi<sup>55</sup>.

1966-yil 6 – 10-yanvar kunlari Toshkentda Pokiston prezidenti Muhammad Ayub Xon bilan Hindiston bosh vaziri Lal Bahodur Shastri o'rtasida SSSR Ministrlar Soveti Raisi A.N.Kosigin ishtirokida muzokaralar bo'lib o'tdi. Muzokaralar Hindiston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlarni normallashtirish maqsadida SSSR tashabbusi bilan tashkil qilingan edi. Natijada 10-yanvar kuni ikki tomonlama imzolangan Deklaratsiya davlatlar o'rtasidagi mojaro oqibatlarini bartaraf etish: ikki davlat qo'shinlarini ular harbiy to'qnashuv boshlanishidan oldin egallab turgan pozitsiyasiga qaytarish, diplomatik vakolatxonalarining normal faoliyatini tiklash, Hindiston va Pokiston o'rtasida iqtisodiy va savdo aloqalarini tiklash bo'yicha tadbirlarni muhokama qilish va boshqalarni ko'zda tutardi<sup>56</sup>. Toshkent deklaratsiyasi Hindiston va Pokiston o'rtasidagi bahsli masalalarni hal qilish uchun real asos yaratdi va Sharq mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarda Toshkent shahri mavqeining yuksalib borayotganligini ko'rsatdi.

1960-yillardan boshlab Toshkent mintaqaning siyosiy va madaniy markazi sifatida katta obro'ga ega bo'lib bordi. Sharof Rashidovning sa'y harakatlari natijasida 1968-yili Osiyo va Afrika va mamlakatlari Toshkent xalqaro

---

<sup>52</sup> "Қизил Ўзбекистон", 1961 йил 12 сентябрь.

<sup>53</sup> "Қизил Ўзбекистон", 1964 йил 19 март.

<sup>54</sup> O'zMA, 2037-fond, 7-ro'yxat, 260-yig'majild, 23-24-varaqlar.

<sup>55</sup> O'zMA, 2037-fond, 7-ro'yxat, 80a-yig'majild, 83-152-varaqlar.

<sup>56</sup> «Правда», 11 января 1966 г.

kinofestivali ochildi. Kinofestival har ikki yilda bir marta “Tinchlik, sotsial progress va xalqlar ozodligi” shiori ostida o‘tkazildi. Dastlab ikki qit’a kino ijodkorlarining uchrashuvi sifatida tashkil qilingan festival kengayib, Lotin Amerikasi mamlakatlarini ham o‘ziga jalb qildi. 1968-yilgi Birinchi Toshkent xalqaro kino festivalida 49 ta davlat va xalqaro tashkilotlardan vakillar ishtirok etgan bo‘lsa, 1984-yilgi Sakkizinchi Toshkent xalqaro kino festivalida 100 ta mamlakatlardan kinochilar ishtirok etdi. Sharof Rashidov rahbarlik qilgan yillari O‘zbekistonning xalqaro ilmiy aloqalari ham jadal rivojlandi. Bu davrda O‘zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar uchun milliy kadrlar tayyorlaydigan markazlardan biriga aylandi. Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti) Maxsus fakulteti yigirma yil ichida mamlakat oliy o‘quv yurtlarida o‘qish uchun 3 mingdan ortiq chet el yoshlarini tayyorladi. Ularning ko‘pchiligi respublikamiz oliy o‘quv yurtlarini tamomladi. Faqat 1982-yili O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida dunyoning 73 mamlakatidan 3 mingdan ortiq talaba, aspirant va stajyorlar ta‘lim oldi. Bundan tashqari Toshkent davlat universitetida AQSH, Fransiya, Germaniya, Hindiston, Iroq, Afg‘oniston va boshqa mamlakatlardan olimlar va pedagog kadrlar faoliyat olib bordi. Shuningdek, Toshkent davlat universitetidan talaba va aspirantlar Sharq mamlakatlarida ta‘lim oldi.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 60-yillarning ikkinchi yarmi – 80-yillarning boshlarida O‘zbekiston SSRning iqtisodiy va madaniy rivojlanishida yuz bergan ijobiy o‘zgarishlar va shu davrda Sharof Rashidovning SSSR xalqaro aloqalaridagi ishtiroki tufayli respublikamizning chet mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari yanada kuchayganligini kuzatish mumkin. Ammo, respublikadaga paxta yakkahokimligi, iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanishi iqtisodiy aloqalarning sifatiga ta‘sir ko‘rsatmasdan qolmadi. O‘zbekiston ko‘proq xom ashyo, asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetkazib beruvchi respublika sifatida qoldi.

## XULOSA

“O‘zbekiston tashqi aloqalarining rivojlanishi va bu jarayonda Sharof Rashidovning roli” mavzusini o‘rganish natijasida uning ilmiy, amaliy ahamiyati va dolzarbligidan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. SSSR xalqaro munosabatlari tizimida ittifoqdosh respublikalar o‘rnining nazariy-huquqiy asoslari sovet qonunlari asosida tahlil qilindi. O‘zbekiston SSRning tashqi aloqalar sohasidagi vakolatlariga tarixiy-huquqiy tavsif berilib, bu davrda O‘zbekiston SSR tashqi aloqalarning real huquqiga ega emasligi, respublikamiz xalqaro huquqning mustaqil subyekti bo‘lmaganligi ta‘kidlanib, O‘zbekiston SSR faqat markaz belgilab bergan vakolatlar doirasida chet davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnik aloqalarni o‘rnatganligi haqida xulosa qilingan.

2. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng xalqaro munosabatlarda jiddiy o‘zgarishlar yuz berganligi, SSSRning xalqaro miyoqsda roli ortganligi bu O‘zbekiston SSRning xalqaro munosabatlardagi ishtiroki uchun ma‘lum imkoniyatlar yaratganligi, xususan, sovet tashqi siyosatining Sharq yo‘nalishida

asosiy rol O'zbekistonga ajratilganligi ko'plab ilmiy adabiyotlar, arxiv materiallarini tahlil qilish orqali asoslangan.

3. Stalinning vafoti va SSSRda yangi rahbariyatning hokimiyatga kelishi 1954 – 1964-yillarda sovet tashqi siyosat strategiyasi jiddiy transformatsiyaga uchradi. Bu davrda har xil ijtimoiy tuzumdagi davlatlarning tinch-totuv yashash prinsipi ilgari surilgan bo'lib, bu xalqaro munosabatlarda jiddiy o'zgarilarga olib keldi. Shu davrda Sh.Rashidovning tashqi siyosat sohasidagi faoliyati boshlanib, u asosan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan hamkorlik o'rnatish, SSSR tashqi siyosatini ushbu hududlarda targ'ib qilishga yo'naltirilganligi haqida xulosa chiqarilgan.

4. Ma'lumki 1960-yillar Osiyo va Afrika mamlakatlarida milliy-ozodlik harakatining kuchayishi, ko'pchilik davlatlarning o'z mustaqilligini e'lon qilishi davri bo'ldi. SSSR yangi mustaqil davlatlar bilan hamkorlik qilishda ularni sotsialistik oriyentatsiya yo'lga boshlashni maqsad qilib qo'ydi va bu yo'lda O'zbekiston sotsializm yutuqlarining ko'rgazmasi rolini o'ynashi lozim edi. Bu xalqaro munosabatlarda O'zbekiston SSR rahbari Sh.Rashidovning roli va poytaxt Toshkent shahrining mavqei ortib borganligiga sabab bo'lganligi asoslangan.

5. 1964-yili SSSRda hokimiyat almashinuvi natijasida xalqaro munosabatlarda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Shakllangan yangi xalqaro tizimda SSSRning roli jiddiy kuchaydi va unda O'zbekiston SSRning ishtiroki ham jadallashdi. Sh.Rashidov shu davrda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining ko'plab mamlakatlariga rasmiy tashrif buyurib, SSSR siyosatining faol targ'ibotchisiga aylanganligi va shu jarayonda O'zbekistonni dunyoga tanitishda katta rol o'ynaganligi asoslab berilgan.

6. 1960 – 1980-yillarda Toshkent SSSRning Sharq mamlakatlari bilan xalqaro madaniy va ilmiy hamkorligi markazlaridan biriga aylandi. Shu davrda O'zbekiston sovet tashqi siyosati manfaatlaridan kelib chiqib, dunyoning 100 ga yaqin mamlakatlari bilan madaniy, ilmiy-texnik hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Toshkent rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun kadrlar tayyorlaydigan markazlardan ham biriga aylandi. Bunda respublikaga rahbarlik qilgan Sh.Rashidovning roli ko'plab ilmiy asarlar va arxiv ma'lumotlari tahlili orqali ochib berilgan.

7. Xalqaro miqyosda Toshkent rolining ortib borishi Sh.Rashidovni ham mintaqa rahbarlari orasidagi yetakchilik rolini belgilab berdi. Mahalliy va chet ellik tadqiqotchilarning asarlarida ta'kidlanganidek, 1960-yillardan boshlab O'zbekiston va uning rahbari Sh.Rashidov xalqaro miqyosdagi tadbirlarda faol ishtirok etganligi isbotlangan.

8. Mustaqillikka erishgan Afrika mamlakatlariga Sharof Rashidov amalga oshirgan tashriflar bu mamlakatlarga iqtisodiy va ilmiy-texnik yordam ko'rsatish, ulardagi ijtimoiy muammolarni baratrof qilishga yo'naltirilganligi bilan birga, siyosiy masalalar, xususan, Mozambik, Angola, Gana kabi Afrika mamlakatlarida hokimiyat masalasini hal qilishda ham sovet manfaatlarini ifoda etganligi asoslangan.

9. O'zbekistonning chet ellar bilan aloqalari tarixini tahlil qilish jarayonida XX asrning 60 – 80-yillarida respublikaning iqtisodiy va ilmiy-texnik

imkoniyatlari ortib borganligi bu esa O‘zbekistonni mustaqillikka erishgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari uchun jozibador respublikaga aylantirganligi ilmiy ishlar va arxiv materiallari asosida ochib berilgan.

Tadqiqot ishi bo‘yicha chiqarilgan xulosalar O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning mustaqil subyekti bo‘lmasdan, tashqi aloqalarda faqat SSSR manfaatlarining ifodachisi bo‘lganligi, respublika ijtimoiy-madaniy hayotini, ilm-fanni mafkuralashtirish tariximizda mash‘um rol o‘ynaganligini ta’kidlagan holda quyidagi **taklif** va **tavsiyalarni** bildirish imkonini beradi:

1. O‘zbekiston tarixi va xalqaro munosabatlar tarixidan yaratilayotgan fundamental asarlar, darslik va qo‘llanmalarda 1950 – 1983-yillari Sharof Rashidovning SSSR tashqi aloqalarini rivojlantirishdagi rolini alohida mavzu sifatida yoritib berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida “Sharof Rashidovning diplomatik faoliyati” deb nomlangan maxsus kurs o‘qitishi o‘zbek diplomatiyasi yutuqlarini o‘rganishga qo‘shilgan hissa bo‘ladi.

3. Bugun dunyoda yuz berayotgan global jarayonlar va ularda Yangi O‘zbekiston rolining ortib borayotganligini inobatga olgan holda, respublikamizning tinchliksevar tashqi siyosatini, dunyo mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli va teng hamkorlik tarafdori ekanligi g‘oyasini yoshlar ongiga singdirish lozim.

4. Ta’lim tizimini yanada isloh qilish jarayonida yoshlarga mustaqillik g‘oyalari bilan birga milliy manfaatlarni tinch yo‘l bilan himoya qilishda xalq diplomatiyasining roli haqida tushunchalar berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

5. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari, jumladan, Internet tarmog‘ini ham inobatga olgan holda O‘zbekiston tarixining qiziqarli va murakkab mavzulari, jumladan, Sharof Rashidovning SSSR tashqi siyosati doirasida O‘zbekiston SSR tashqi aloqalarini rivojlantirish borasidagi faoliyatini aks ettirishda ularning imkoniyatidan unumli foydalanishning zamonaviy tizimini yaratish lozim.

6. O‘zbekistonning xalqaro mavqei ortib borayotgan hozirgi davrda respublikamizning ilmiy-pedagogik va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, Afrika va Osiyodagi kambag‘al mamlakatlarning yoshlari uchun O‘zbekistonning davlat oliy o‘quv yurtlarida grant o‘rinlari ajratish tajribasi O‘zbekistonning mintaqadagi yetakchilik rolining yanada ortishiga xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

---

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И  
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
УНИВЕРСИТЕТ РЕНЕССАНС ТАЪЛИМ**

**КУРБАНОВА ШАХЛО ЖАЛОЛИДДИН КИЗИ**

**РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА И  
РОЛЬ ШАРАФА РАШИДОВА В ЭТОМ ПРОЦЕССЕ (1950-1983 гг.)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**ТАШКЕНТ – 2025**

**Тема доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № B2024.1.PhD/Tar1786.**

Диссертация выполнена в университете Ренессанс таълим.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета [www.tarix.uz](http://www.tarix.uz) и на Информационно-образовательном портале [www.ziyo.uz](http://www.ziyo.uz).

**Научный руководитель:**

**Эргашев Шухрат Эргашевич**  
доктор исторических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Махкамова Нодира Рахмановна**  
доктор исторических наук, профессор

**Бобоев Ферузбек Сайфуллоевич**  
доктор исторических наук

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный университет востоковедения**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г. в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2021.Tar.26.03 по присуждению ученых степеней при **национальном педагогическом университете Узбекистана** (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, 27). Тел.: (+99871) 276-76-51; факс: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu.kengash@edu.uz](mailto:tdpu.kengash@edu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре **национального педагогического университета Узбекистана** (зарегистрировано за №\_\_\_) (Адрес: 100185, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Бунёдкор, 27). Тел.: (+99871) 276-76-51; факс: (+99871) 276-76-51.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года  
(реестр протокола рассылки от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года)

**А.К. Киргизбаев**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор

**Я.Р. Тайронов**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, к.и.н.

**Н.Х. Обломуродов**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.и.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Сегодня глубокие трансформационные процессы, происходящие в системе международных отношений, требуют от участников глобальной политики проведения политики, направленной на укрепление взаимного доверия. Сегодня существует реальная угроза того, что локальные вооруженные столкновения по всему миру могут эскалировать до глобального конфликта, несущего гибель человеческой цивилизации. Чтобы понять это, требуется тщательное изучение сложнейших процессов XX века, в частности предотвращения ядерной угрозы в биполярном мире. Важно также проанализировать и извлечь уроки из опыта лидеров государств в урегулировании конфликтов, сделав этот опыт актуальным для современности.

Проводимые научные исследования в ведущих университетах мира и многих исследовательских центрах, таких как Фонд Карнеги за международный мир, Французский институт международных отношений, Институт США и Канады Российской академии наук, Китайский институт народной дипломатии, Японский институт международных отношений, посвященные политическим лидерам XX века, говорит о важности данной темы. Именно неспособность политиков разрешить конфликты мирным путем привела в XX веке к двум мировым войнам и поставила человеческую цивилизацию на грань разрушения. Сегодня проводимые в мире научные исследования приобретают все большее значение, поскольку они направлены на определение пути мирного развития человечества, благоприятного для всех народов мира и роли политических лидеров в этом процессе.

Политика Республики Узбекистан на международной арене привлекает особое внимание мирового сообщества. «Внутренняя и внешняя политика Узбекистана, основанная на глубокой мысли, прагматичных и конкретных решениях, получает признание международного сообщества за свою жизнеспособность и реагирование на нужды и интересы простых людей»<sup>57</sup>. Активная внешняя политика Узбекистана требует глубокого понимания истории международных отношений республики. Особое значение имеет изучение деятельности Шарофа Рашидова, который на протяжении четверти века руководил Узбекистаном и внес вклад в развитие его внешних связей, в том числе в рамках внешней политики СССР. Изучение этого определяет актуальность и необходимость темы диссертации.

Изучение этой темы важно, поскольку в тот период Узбекская ССР не обладала статусом субъекта международных отношений. Тем не менее, советское руководство стремилось привлечь страны «третьего мира», обретшие независимость, на путь социалистической ориентации, превращая Ташкент в значимый политический и культурный центр Востока. Особую

---

<sup>57</sup> Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2022. – B. 368.

научную значимость представляет анализ того, как Ш. Рашидов в своей деятельности способствовал развитию внешних связей Узбекской ССР.

Настоящая диссертация в определенной степени служит реализацией задач, обозначенных в Постановлениях и Указах Президента Республики Узбекистан №ПП-2854 о «О праздновании 100-летия со дня рождения выдающегося государственного деятеля и писателя Шарафа Рашидова» от 27 марта 2017 г., №ПП-2995 о «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников» от 24 мая 2017 г., №ПП-4699 «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства» от 28 апреля 2020 г., №УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы» от 28 января 2022 г. и других нормативно-правовых актах.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** При изучении темы источниковой базой научно-исследовательской работы послужили фонды Национального архива<sup>58</sup> Узбекистана, музей «Шон-Шараф» в Джизаке, «Дом-музей Шарафа Рашидова» и «Международный общественный фонд Шарафа Рашидова», мемуары.

Развитие международных отношений Узбекистана и роль Шарафа Рашидова в этом процессе (1950 -1983гг.) исследования, имеющие определенное отношение к теме, можно условно разделить на несколько групп по периодичности и содержанию:

1. Труды, изданные в советское время. 2. Исследования в годы независимости. 3. Зарубежные исследования.

